

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining korrupsiyaga qarshi kurashish SIYOSATI

*Mazkur Siyosatga quyidagilarga muvofiq qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilgan:
Bank kengashining 2021-yil 7-dekabrda 172-son qarori bilan tasdiqlangan va 598-son
bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat;
Bank kengashining 2022-yil 31-yanvarda 8-son qarori bilan tasdiqlangan va
167V-2-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat.*

Muqaddima

- 1-§. Umumiy qoidalar
- 2-§. Korrupsiyaga qarshi kurashishning maqsadi va asosiy prinsiplari
- 3-§. Korrupsion harakatlar va ular haqida xabar berish mexanizmi
- 4-§. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qilish
- 5-§. Korrupsiyaning oldini olish choralari
- 6-§. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik
- 7-§. Korrupsion harakatlar to'g'risida axborot bergan xodimni (shaxsni) oshkor qilmaslik
- 8-§. Komplaens-nazorat departamentining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari, huquqlari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan faoliyati yuzasidan hisobot topshirish tartibi
- 9-§. Yakuniy qoidalar.

Ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida” va “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida” qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” farmonlari, ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi: qo'llanishi bo'yicha talablar va tavsiyalar” xalqaro standarti asosida ishlab chiqildi va u “Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankida (keyingi o'rinlarda – Bank) korrupsiyaga qarshi kurashishning maqsadi va prinsiplari, korrupsion harakatlar va ular haqida xabar berish mexanizmi, korrupsiyaning oldini olish choralari hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni belgilab beradi. *(Bank kengashining 2021-yil 7-dekabrda 172-son qarori bilan tasdiqlangan va 598-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi muqaddima)*

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur hujjatda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

Bosh bank – Bank boshqaruvi apparati;

filial – Bankning Amaliyot boshqarmasi va filiallari;

korrupsiya – xodimning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatini yoxud o'zga shaxslar manfaatini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korrupsiyaviy omil – Bank ichki normativ hujjatlarining (ular loyihalarining) korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyani yuzaga keltiradigan normalari;

manfaatlar to'qnashuvi – Bank va quyidagi shaxslar: Bank mijozlari, Bank aksiyadorlari, Bankning kuzatuv kengashi a'zolari, Bank boshqaruvi a'zolari, Bank xodimlari, Bankka aloqador shaxslar, omonatchilar, kreditorlar, Bankdan manfaatdor bo'lgan boshqa shaxslar, oxirgi benefitsiar mulkdorlar o'rtasida o'zaro munosabatlar va aloqalar natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlari buzilishi holati.

2. Bank korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini korrupsiyaning oldini olish, Bosh bank tarkibiy tuzilmalari va filiallar zimmasiga yuklatilgan vazifa va funktsiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsiya xavf-xatarlarini baholab borish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash uchun yuritadi.

Bankda korrupsiyaning har qanday ko'rinishi taqiqlanadi va korrupsion faoliyatga nisbatan murosasiz munosabat o'rnatiladi. *(Bank kengashining 2022-yil 31-yanvardagi 8-son qarori bilan tasdiqlangan va 167V-2-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan xatboshi)*

3. Mazkur Siyosat jismoniy va yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarga bank xizmatlari ko'rsatish bo'yicha asosiy faoliyatni amalga oshirishda, shuningdek uchinchi shaxslar, shu jumladan davlat organlari va hamkor tashkilotlar vakillari bilan munosabatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish printsiplarini belgilaydi hamda Bankning barcha xodimlariga nisbatan qo'llaniladi.

Bank boshqaruvi va xodimlar poraxo'rlikka qarshi kurashish tizimi talablariga rioya etishi hamda bu tizimni muntazam takomillashtirishi lozim.

(Bank kengashining 2022-yil 31-yanvardagi 8-son qarori bilan tasdiqlangan va 167V-2-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band)

2-§. Korrupsiyaga qarshi kurashishning maqsadi, printsiplari va asosiy yo'nalishlari

(Bank kengashining 2022-yil 31-yanvardagi 8-son qarori bilan tasdiqlangan)

*va 167V-2-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat
tahriridagi paragraf nomi)*

4. Bank va xodimlarning korrupsion harakatlarga aralashuvi xatarini keskin kamaytirish va yo'q qilish korrupsiyaga qarshi kurashishning maqsadi hisoblanadi.

5. Quyidagilar korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy printsiplari hisoblanadi:

a) qonuniylik – korrupsiyaga qarshi kurashish O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida” qonuni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga hamda ushbu Siyosatga muvofiq amalga oshirilishi;

b) Bank mijozlari, Bank aksiyadorlari, omonatchilar, kreditorlar, Bankdan manfaatdor bo'lgan boshqa shaxslar, oxirgi benefitsiar mulkdorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

v) ochiqlik va shaffoflik – korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida jamoatchilik ishtiroki ta'minlanishi;

g) tizimlilik – korrupsiyaga qarshi kurashishda korrupsion harakatlarni aniqlash va ular haqida xabar berish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari bilan hamkorlik qilish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik, korrupsiyaning oldini olish choralarini ko'rish jarayonlarining to'liqligi va uzluksizligi ta'minlanishi;

d) Bank va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning hamkorligi;

ye) korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;

yo) sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikning muqarrarligi.

5-1. Quyidagilar korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi:

a) Bank faoliyatining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash;

b) korrupsiyaviy omillarni hamda xodimlar va Bank rahbarlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka jalb qilinishini minimallashtirish;

v) korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonun hujjatlari va korrupsiyaviy omillarga nisbatan ko'riladigan choralar to'g'risida Bank xodimlari bilimini va biznes hamkorlarning xabardorlik darajasini oshirish;

g) korrupsion holatlarni aniqlash va korrupsiyaga oid huquqbuzarlikning oldini olish mexanizmini, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashishning menejment tizimini takomillashtirish.

*(Bank kengashining 2022-yil 31-yanvardagi 8-son qarori bilan tasdiqlangan va
167V-2-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan band)*

3-§. Korrupsion harakatlar va ular haqida xabar berish mexanizmi

6. Quyidagilar korrupsion harakatlar hisoblanadi:

- a) pora berish yoki olish;
- b) pora berilishida yoki olinishida vositachilik qilish;
- v) xizmat mavqei yoki vakolatlarini suiiste'mol qilish;
- g) tijoratda pora evaziga og'dirib olish;

d) rahbar xodim tomonidan o'zining yoki boshqa shaxsning moddiy (nomoddiy) manfaat ko'rishini ko'zlab o'z xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanish.

7. Korrupsion harakatlar haqida xabar berish ““Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki tizimida noo'rin xatti-harakatlarni aniqlash va ular haqida xabar berish tartibi to'g'risida nizom” (Bank kuzatuv kengashining 2021 yil 22 oktyabrdagi 134-son qarori tasdiqlangan va 2021 yil 29 oktyabrda 597-son bilan ro'yxatga olingan) asosida amalga oshiriladi. *(Bank kengashining 2022-yil 31-yanvardagi 8-son qarori bilan tasdiqlangan va 167V-2-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band)*

8. Korrupsion harakatlar haqida xabar berish mexanizmi faoliyatini ta'minlash bo'yicha javobgarlik Bosh bankning Komplaens-nazorat departamentiga yuklatgan.

4-§. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qilish

9. Bank korrupsiyaga qarshi kurashishda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi quyidagi davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi:

- a) O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;
- b) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
- v) O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;
- g) O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
- d) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;
- e) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyat-larga qarshi kurashish departamenti;

o) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi.

10. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi davlat organlari va tashkilotlariga xabar berish majburiyati Bosh bankning Komplaens-nazorat departamenti zimmasiga yuklatilgan.

5-§. Korrupsiyaning oldini olish choralari

11. Bank korrupsiyaning oldini olish uchun quyidagi choralarni amalga oshiradi:

a) rahbar xodimlar va boshqa xodimlarning o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas'uliyatini kuchaytirish;

b) rahbar xodimlar va boshqa xodimlar tomonidan o'z xizmat majburiyatlarining bajarilishi sifatini baholash tizimini joriy etish;

v) xodimlar tomonidan “Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining korporativ odob-axloq kodeksi” (*Bank kuzatuv kengashining 2020-yil 28-oktyabrdagi 120-son qarori bilan tasdiqlangan va 2020-yil 3-noyabrda 573-son bilan ro'yxatga olingan*) normalariga rioya qilinishini nazorat qilish;

g) Bankning kuzatuv kengashi va Bank boshqaruvi a'zolari hamda Bank boshqa xodimlarining o'z xizmat majburiyatlarini bajarishida yuzaga keladigan manfaatlar to'qnashuvini hal qilishda “Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish siyosati” (Bank kuzatuv kengashining 2020-yil 17-dekabrdagi 143-son qarori bilan tasdiqlangan va 2020-yil 24-dekabrda 152V-son bilan ro'yxatga olingan) normalariga rioya etilishi yuzasidan monitoring o'tkazilishini ta'minlash;

d) xodimlarni shaxsiy va kasbiy sifatlari, ochiqlik, beg'arazlik, adolatlilik va xolislik printsiplari asosida tanlov bo'yicha saralash hamda xizmatda ko'tarilish tizimini joriy etish;

e) rahbar xodimlar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi, murojaatlarning to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishi, jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlarini tiklash hamda qonuniy manfaatini himoya qilish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida choralar ko'rilishi ustidan nazoratni ta'minlash;

o) Bank faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan, Bosh bankning Komplaens-nazorat departamenti tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholagan holda, muntazam ravishda monitoring o'tkazish;

j) ichki normativ hujjatlarning (ular loyihalarining), ularda korrupsiyaviy omillar mavjudligi nuqtai nazaridan, korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish;

z) rahbar xodimlar va boshqa xodimlarning samarali ijtimoiy himoya qilinishi, moddiy ta'minot olishi va rag'batlantirilishini ta'minlash.

Bank korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlarni ham amalga oshirishi mumkin.

12. Rahbar xodimlar va boshqa xodimlar qonun hujjatlariga rioya etishi, o'z xizmat majburiyatlarini beg'arazlik bilan, xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huquqbuzarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoit yaratadigan har qanday harakatdan o'zini tiyishi lozim.

6-§. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik

13. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etgan xodim (shaxs) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etgan xodim (shaxs) sudning qaroriga ko'ra muayyan huquqlardan, shu jumladan muayyan lavozimlarni egallash huquqidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq mahrum etilishi mumkin.

7-§. Korrupsion harakatlar to'g'risida axborot bergan xodimni (shaxsni) oshkor qilmaslik

14. Bank korrupsion harakatlar to'g'risida axborot bergan xodimni (shaxsni) oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.

Korrupsion harakatlar to'g'risida axborot bergan xodimni (shaxsni) ta'qib etish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Ushbu bandning qoidalari korrupsion harakatlar to'g'risida bila turib yolg'on axborot bergan xodimga (shaxsga) nisbatan tatbiq etilmaydi, u O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

8-§. Komplaens-nazorat departamentining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari, huquqlari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan faoliyati yuzasidan hisobot topshirish tartibi

15. Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida tashkil etilgan Komplaens-nazorat departamentining faoliyat yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

a) Bankda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilishni ta'minlash, shuningdek, korrupsiyaga oid xavf-xatar yuqori bo'lgan bank xizmatlari hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash;

b) korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi Bank siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid xuquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish;

v) bank xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalariga oid axborotni tarqatish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishni tashkil etish orqali Bankda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish;

g) Bank ichki normativ hujjatlari va ularning loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini Bosh bankning Yuridik xizmat departamenti bilan birgalikda o'tkazish;

d) korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish, xalqaro standartlarni va ilg'or xorijiy amaliyotni joriy etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

e) bank xizmatlariga halollik standarti ("halollik vaktsinasi") va manfaatlar to'qnashuvini

hal etish standartlarini joriy etish choralarini ko'rish, shuningdek, ularga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

o) Bankning o'z mablag'i va jalb etilgan resurslari, xalqaro moliya tashkilotlari va xorijiy banklarning kreditlaridan foydalanish, Bank aktivlarini realizatsiya qilish va Bank xaridlari sohasida korrupsiyaga qarshi nazorat tizimining samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, uni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

j) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda Bankning imidjini mustahkamlash va uning mahalliy va xalqaro reytinglardagi o'rni oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

z) korrupsiyaning holati, tendentsiyalari va sabablari hamda korrupsiyaga qarshi choralar ko'rishning samaradorligi yuzasidan tahliliy ishlarni tashkil etish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning ta'sirchanligini oshirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

i) Bankda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, shu maqsadda ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlikni amalga oshirish.

16. Komplaens-nazorat departamenti Bosh bank tarkibiy tuzilmalari va filiallar zimmasiga yuklatilgan vazifa va funktsiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsiya xavf-xatarlarini davriy ravishda (har chorak yakuni bo'yicha) majburiy baholab boradi, uning yakunlari bo'yicha:

a) korrupsiya xavf-xatariga eng ko'p duch keladigan bank xodimlarining faoliyat sohalari va lavozimlari, shuningdek, ularning funktsiyalari (vakolatlari) ro'yxatini shakllantiradi;

b) Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi ijrosining har choraklik monitoringini amalga oshiradi va korrupsiya xavf-xatarlarini minimum darajaga tushirish choralarini ko'radi.

17. Komplaens-nazorat departamenti korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha quyidagi huquqlar ega:

a) Bankning o'z mablag'i va jalb etilgan resurslarining sarflanishi, Bank aktivlarining realizatsiya qilinishi, Bank xaridlari, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi va davlat dasturlari bajarilishi bilan bog'liq materiallarni talab qilish, olish va o'rganish;

b) jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya masalasi bo'yicha murojaatlarini ko'rib chiqish hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha choralar ko'rish;

v) Bank rahbariyati, Bank boshqaruvi, Bosh bank (filial) kredit komissiyasi, Bank likvidligini boshqarish qo'mitasi, Bosh bank tarkibiy tuzilmalari va filiallar faoliyatida korrupsiya holatini o'rganish;

g) korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash;

d) o'rganish va boshqa tadbirlar natijasi bo'yicha to'plangan materiallarni faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik alomatlari bo'lgan xodimlarga nisbatan qonunga muvofiq choralar ko'rish, jumladan jinoyat ishini qo'zg'atish uchun huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa

davlat organlariga o'ratilgan tartibda taqdim etish;

e) korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha ichki surishtiruvlar o'tkazish;

o) Bank boshqaruvi, Bosh bank (filial) kredit komissiyasi, Bank likvidligini boshqarish qo'mitasi qarorlarida korrupsiya belgilari aniqlangan hollarda ularning ijrosini to'xtatish yoki bekor qilish to'g'risida ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalarni Bankning kuzatuv kengashiga kiritish;

j) Bankning kuzatuv kengashi raisiga ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko'rish to'g'risida taqdimnomalar kiritish.

18. Komplaens-nazorat departamenti korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan faoliyati yuzasidan:

a) moliyaviy yil yakunlangandan so'ng har yili 1 martga qadar Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan faoliyat to'g'risida hisobot tayyorlaydi hamda uni ko'rib chiqish uchun Bankning kuzatuv kengashi va Bank boshqaruviga kiritadi;

b) Bank manfaatiga va imidjiga zarar yetkazuvchi korrupsiyaga oid huquqbuzarlik-larni kompleks tahlil qiladi hamda natijasi bo'yicha Bankning kuzatuv kengashi va Bank boshqaruviga axborot beradi;

v) Bankda sodir bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar oqibatida jamiyat, davlat va bank manfaatlariga yetkazilgan zarar to'liq qoplanilishiga erishish ustidan nazoratni amalga oshiradi;

g) Bank ichki normativ hujjatlari va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish tizimi samaradorligini tahlil qiladi va uni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritadi;

d) Bank xaridlari sohasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi: ISO 37001:2016 xalqaro standarti"ni qo'llashni ko'zda tutuvchi talabni o'rnatadi;

e) filiallarda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hududiy chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etadi;

o) korrupsiya holatiga doir materiallarni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlariga taqdim etadi.

9-§. Yakuniy qoidalar

19. Bank xodimlari ushbu Siyosat talablariga rioya etilishi uchun mas'uldir.

Mazkur Siyosat talablarini buzgan xodimlar (shaxslar) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy yoki ma'muriy yoxud jinoiy javobgarlikka tortiladi.

20. Mazkur Siyosat ijrosini nazorat qilish Bosh bankning Komplaens-nazorat departamentiga yuklatiladi.

Boshqaruv raisi

S.Normuxamedov

Boshqaruv a'zolari bilan kelishildi:

Boshqaruv raisi o'rinbosari	K.Gabbazov
Boshqaruv raisi o'rinbosari	Z.Kurganov
Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori	M.Maisova
Strategik rivojlanish departamenti direktori	S.Urmanova
Iqtisodiy tahlil va statistika departamenti direktori	M.Muxammedyarova
Yuridik xizmat departamenti direktorii v.v.b.	M.Mambetov